



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 15-aprel, shanba,
45 (23.766)-son

**KUN
HIKMATI**

O'z kuchiga
ishongan uzoqni,
birovga ishongan
esa faqat
bugunini o'ylaydi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

KONSTITUTSIYA – MENIKI, SENIKI, BIZNIKI!



SAMARQANDDA MINTAQAVIY XALQARO MASALALAR MUHOKAMA ETILDI

14-aprel kuni Samarqand shahrida MDH tashqi ishlar vazirlarining navbatdagi yig'ilishi o'tkazildi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi TIV rahbari Baxtiyor Saidov, Armaniston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Ararat Mirzoyan, Belarus Respublikasi tashqi ishlar vaziri Sergey Aleynik, Qirg'iz Respublikasi tashqi ishlar vaziri Jeenbek Kulubaev, Qozog'iston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari – tashqi ishlar vaziri Murot Nurtleu, Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrov, Tojikiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Sirojiddin Muhiddin, Ozarbayjon Respublikasi va Turkmaniston tashqi ishlar vaziri o'rinbosarlari Xalaf Xalafov va Vepa Xadijyev hamda MDH Bosh kotibi Sergey Lebedev ishtirok etdi.

Yig'ilishda hamdo'stlik mamlakatlarining tashkilot doirasidagi va ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarining bugungi holati va istiqbollari, xalqaro kun tartibi yuzasidan fikr almashildi. Bir qator muhim masalalar bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Xususan, madaniy-gumanitar sohada hamkorlikni rivojlantirish yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi. Xususan, 2023-yilda Belarus Respublikasining Minsk shahri hamdo'stlikning "Sport poytaxti" deb e'tirof etildi. 2024-yilda bu maqom Armanistonning Gyumri shahriga beriladi.

13-aprel kuni Samarqand shahrida O'zbekiston tomoni raisligida Afg'onistonga qo'shni davlatlar vazirlarining to'rtinchi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Tadbirda O'zbekiston, Eron, Pokiston, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston va Xitoy tashqi siyosat idoralari rahbarlari ishtirok etdi.

Forum davomida tomonlar Afg'onistondagi mavjud vaziyat, ushbu mamlakatning amaldagi rasmiylari tomonidan jahon hamjamiyatining inklyuziv hukumat yaratish, afg'onistonlik ayollarning mehnat va ta'lim olish imkoniyatini hamda milliy ozchilikning huquqlarini ta'minlash kabi asosiy talablarining bajarilishi muhokama qilindi.

Afg'oniston xalqiga gumanitar yordam ko'rsatish va mamlakatni milliy iqtisodiyotini tiklashga qaratilgan birgalikdagi harakatlar mexanizmini ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi.

Xalqaro terrorizm, gijohvand moddalar ishlab chiqarish va ularning kontrabandasiga qarshi kurashda Afg'onistonga qo'shni davlatlarning chora-tadbirlarini kuchaytirish muhimligi qayd etildi.

Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi mintaqaviy o'zaro bog'liqlikning asosiy omili sifatida Afg'oniston salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish muhimligiga e'tibor qaratildi.

Shu nuqtai nazardan, tomonlar Afg'oniston hududida qo'shni davlatlar ishtirokida nafaqat yangi ish o'rinlari yaratish, balki bu mamlakatning mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga yanada faol integratsiyalashuviga xizmat qiluvchi infratuzilma va ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish tarafdori ekanliklarini bildirdilar.

Afg'onistonga qo'shni davlatlar vazirlari uchrashuvi yakunlari bo'yicha Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi.

Shuningdek, 2024-yilda Samarqand MDHning "Madaniy poytaxti", Toshkent shahri esa "Yoshlar poytaxti" bo'ladi. Hamdo'stlik mamlakatlari uchun jurnalist kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun bazaviy oliy o'quv yurti sifatida Rossiya Federatsiyasining Xalqlar do'stligi universiteti tanlandi. Hamdo'stlik davlatlaridagi sialomatlik bo'yicha imkoniyati cheklangan bolalar o'rtasida spartakiada tashkil etishga qaror qilindi va dastlabki shunday musobaqa 2024-yilda Rossiyada o'tkazilishi belgilandi.

Tashqi ishlar vazirlari kengashining navbatdagi yig'ilishi 12-oktabr kuni Bishkekda bo'ladi. 13-oktabr kuni esa shu shaharda MDH davlat rahbarlari kengashining yig'ilishi, 27-oktabr kuni esa hukumat rahbarlari majlisi o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

Yig'ilishdan so'ng ommaviy axborot vositalari vakillari uchun o'tkazilgan brifingda Qirg'iz Respublikasi tashqi ishlar vaziri Jeenbek Kulubaev va MDH Bosh kotibi Sergey Lebedev Qirg'iz Respublikasi raisligida o'tkazilayotgan bu yilgi tadbirlar hamdo'stlik davlatlari o'rtasidagi har tomonlama aloqalarini yanada mustahkamlash va keng ko'lamda davom ettirishga xizmat qilayotganini ta'kidladi.

Shuningdek, kecha Samarqandda Markaziy Osiyo davlatlari va Rossiya tashqi ishlar vazirlarining oltinchi uchrashuvi o'tkazildi.

Yurak tug'ma nuqsoni bor sirdaryolik bolalar Samarqandda sog'lomlashtiriladi

Bir necha yildan beri markazimizda tug'ma yurak nuqsoni bor bolalarning davolanishi uchun barcha sharoitlar yaratildi, tajribali mutaxassislar ish boshladi. Yaqinda yana ana shunday katta ko'lamdagi jarrohlik amaliyotlari bepul tarzda amalga oshirildi.



Sirdaryolik 56 nafar, samarqandlik 145 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj, davlat budjeti mablag'i hisobidan davolanish imtiyoziga ega bo'lmagan fuqarolar farzandlari, "Mahalla" xayriya jamoat fondi tomonidan ajratilgan 5 milliard 338 million so'm mablag' hisobiga Samarqandda tug'ma yurak nuqsonidan xalos bo'ladi. Sirdaryolik 56 nafar bolajonlar tashkillashtirilgan holda keltirilib, kardiologlar ko'rigidan o'tkazildi. Bolalarning umumiy holati o'rganildi. Yurak tug'ma nuqsonining xavfli va xavfsiz jihatlari o'rganib chiqilib, jarrohlikka muhtoj bolalar ro'yxati shakllantirildi. Yuqori texnologik jarrohlik amaliyotini o'tkazish vaqti va sanasi belgilab olindi.

Dilshod RAHMONOV,
viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi bosh vrachining davolash ishlari bo'yicha o'rinbosari.

Davlat organlari va mansabdorlarga murojaat qilish – fuqaroning konstitutsion huquqi. Lekin u hamma vaqt ham biror idora eshigini qoqib bormaydi. Qachonki, biror masalasi hal bo'lmasa, haq-huquqidan foydalana olmasa yoki nohaqlikka duch kelsa, mutasaddi idora yoki rahbarga murojaat qiladi.

MUROJAATLARGA MUNOSABAT O'ZGARGAN



Keyingi yillarda yurtimizda aholi murojaatlari bilan ishlash tizimining o'zgarishi, xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak, degan tamoyil hayotga tatbiq etilishi aholining boshqaruv organlariga, rahbarlarga ishonchi o'rtishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi va viloyatimizdagi Xalq qabulxonalariga joriy yilning birinchi choragida 31842 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5804 taga kamaygan.

Murojaatlar tahlil qilganda eng ko'p ko'tarilgan masalalar elektr energiyasi (3324 ta) va gaz ta'minoti (2759 ta), sud qarorlarini ijro etish, aliment va qarz undirish (2851 ta), davlat pensiya ta'minoti va ijtimoiy himoya (2883 ta), jinoyat va huquqbuzarliklar (2152 ta), moddiy yordam va homiylik (1497 ta) masalalari bilan bog'liq bo'ldi. Aholi soniga nisbatan Paxtachi va Payariq tumanlarida murojaatlar o'tgan yilning shu davriga nisbatan oshgan. Murojaatlarning qanoatlantirish darajasi qariyb 71 foizni tashkil etmoqda, ya'ni 17900 ga yaqin masala hal etildi.

(Davomi 2-sahifada) >>>



YANGI TAJRIBA: SOLIQLAR MAHALLANING O'ZIDA QOLADI

2022-yil 26-dekabrda Prezidentimizning "Mahalla budgeti" tizimini joriy etish orqali mahallalarning tijimoiy imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" - gi qarori qabul qilindi. Unga asosan respublikamizning 14 hududidagi bit-tadan tumanda tajriba tariqasida mahalla budget tizimi joriy etildi. Ya'ni, soliqlarni undirish bo'yicha ish olib boriladigan tumanlar ro'yxati shakllantirildi. Oddiy qilib aytganda, ma'lum turdagi soliqlar hududning o'zida qoldiriladi va aholining ehtiyojini qondirishga yo'naltiriladi. Tajriba tariqasida o'tkazilayotgan loyihada viloyatimizdan Urgut tumani tanlangan.

(Davomi 2-sahifada) >>>

AMALDAGI KONSTITUTSIYADA IX bob. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar

40-modda.
Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

41-modda.
Har kim bilim olish huquqiga ega.
Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.
Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

42-modda.
Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.
Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi.



48-modda.
Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli.

Davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug'urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralari ko'radi.

Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

KONSTITUTSIYAVIY QONUN LOYIHASIDA IX bob. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar

50-modda.
Har kim ta'lim olish huquqiga ega.
Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi.

Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.
Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir.

Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi.

53-modda.
Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi.
Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi.

MUROJAATLARGA MUNOSABAT O'ZGARGAN

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Misol uchun, Samarqand shahar Do'stlik mahallasida yashovchi O.Jo'ravevning ichimlik suvi tortish haqidagi, Chashma mahallasidan B.Mo'minovning nogironlik aravachasi olishda amaliy yordam ko'rsatish to'g'risidagi murojaati joyiga chiqqan holda o'rganilib, ijobiy hal etildi.

"Saxovat va ko'mak" jamg'armasi mablag'lari hisobidan "Temir daftar"da ro'yxatda turgan 12 nafar kam ta'minlangan, nogironligi bor fuqaroning davolanishi uchun moddiy yordam ko'rsatildi, 47 nafar fuqaroga 1 million 200 ming so'mdan bir martalik moddiy yordam berildi. 28 nafar fuqaroga 11 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi.

"Yoshlar daftari"da ro'yxatda turgan 2 nafar talabaning oliy o'quv yurtlaridagi to'lov shartnoma puli to'lab berildi, 2 nafarining bandidligini ta'minlash maqsadida asbob-uskuna ajratildi.

Ku kabi ishlar barcha tuman va shaharlardagi Xalq qabulxonalariga tomonidan amalga oshirib kelinmoqda.

Xalq bilan muloqot tizimini yanada takomillashtirish, aholi uchun dolzarb bo'lgan muammolarni tezkor hal etish maqsadida vazirlik, idoralar, sektorlar, shahar va tumanlardagi barcha darajadagi tashkilotlar rahbarlari tomonidan ommaviy sayyor qabullar ham muntazam o'tkazib kelinmoqda. Yilning birinchi choragi davomida viloyat bo'yicha 741 marotaba o'tkazilgan shunday ommaviy qabullarda 7200 nafar fuqaroning 7514 ta masala bo'yicha murojaati eshitildi. Bu murojaatlarning 3171 tasi ijobiy hal etilgan. 1794 ta murojaat qo'shimcha o'rganish talab etilganligi sababli nazoratga olingan.

Jumladan, Qo'shrabot tumani 3-sektor rahbarining Qovunchi mahallasida o'tkazgan sayyor qabulida fuqaro X.Qulmatovning elektr simyog'ochlarini almashtirish va tarmoqni yangilab berishga doir masalasi tuman elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan qisqa fursatda ijobiy hal etildi.

Aholining murojaatlari asosida ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida viloyat hokimligi, Xalq qabulxonalariga, sektorlar va homiyilar yordamida 53 ta xonadon yangidan qurib berildi, 1706 ta xonadon ta'mirlandi, 572 ta xonadonga qurilish materiallari ajratildi. Buning uchun mahalliy budjetlarning qo'shimcha daromadlari hisobidan 5,5 milliard so'm va homiyilar yordamida 19,7 milliard so'm mablag' sarflandi. 1229 tasida ishlar davom ettirilmoqda. Bundan tashqari, davolanish va jarrohlik amaliyoti o'tkazish zarurati bo'lgan kam ta'minlangan 158 nafar fuqaroga uchun mahalliy budjetdan 2,5 milliard so'm mablag' ajratildi. Ushbu mablag'lar hisobidan 26 ta endoprotezlash, 11 ta yurak operat-

siyasi, 7 ta ko'z operatsiyasi, 1 nafar fuqaroda buyrak ko'chirish operatsiyasi va 113 ta turli darajadagi tibbiy amaliyotlar bajarildi. Hozirda yana 304 nafar bemorning salomatligini tiklash uchun mablag' ajratish choralarini ko'rilmogda. Shu yilning fevral oyida Ishtixon tumanida "Oqqo'rg'on" tajribasi asosida aholi muammolari va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini o'rganish hamda hal etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida 62 mahallada keng ko'lami obodonlashtirish, bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Qishloqlar infratuzilmasi yaxshilandi, ko'plab muammolarga yechim topildi. Ishtixon namunasi bo'yicha bu kabi ishlar viloyatdagi 172 ta mahallada davom etmoqda.

Bugungi kunda Xalq qabulxonalariga tomonidan sektorlar va tashkilotlar rahbarlari, hokim yordamchilari faoliyati, hududda murojaatlar bilan ishlash holati yuzasidan xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga axborot kiritib borish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Yilning dastlabki choragida 29 ta shunday axborotlar kiritilib, 24 nafar rahbarning hisobotlari eshitilgan. Shuningdek, sektorlar va davlat tashkilotlarining aholi muammolari bilan ishlash faoliyati bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan 62 ta taqdimnoma va 69 ta taklif kiritilgan. Ushbu hujjatlar asosida aholi murojaatlariga e'tiborsiz qaragan 94 nafar xodimga intizomiy chora ko'rilgan.

Davlat organlari va tashkilotlarning fuqarolar murojaatlari bilan ishlash faoliyati ustidan nazorat kuchaytirilgan va ushbu yo'nalishda ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan har bir Xalq qabulxonasi rejasini tasdiqlangan. Joriy yilning dastlabki uch oyida 41 ta tashkilotda o'rganishlar o'tkazilib, 20 ta ko'rsatma va 11 ta taqdimnoma hamda takliflar kiritildi.

Viloyatdagi barcha mahallalarda aholi muammolari bilan ishlash, murojaatlar samaradorligini oshirish jarayoniga sektor rahbarlari, hududdagi idora va tashkilotlar mutasaddilari, mahalla raisi, xotin-qizlar faoli, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, ijtimoiy va iqtisodiy soha mas'ullari hamda mahalliy kengashlar deputatlari keng jalb etilgan holda ish olib borilmoqda.

Joriy yilning birinchi choragida Xalq qabulxonalarida 12 marotaba sektor rahbarlari tomonidan ko'p va takroriy murojaat qilgan fuqarolarning shaxsiy qabullari tashkil etildi. Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushgan har bir murojaatni joyida hal etish va fuqarolarning roziligini olish maqsadida 349 ta murojaat mutasaddi tashkilot vakillari bilan birgalikda joyiga chiqib o'rganilgan.

Mamatjon TURDIYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatdagi Xalq qabulxonasi mudiri.

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Aslida bu tajriba dunyo davlatlari amaliyotida qo'llaniladi. Misol uchun, Germaniyada aynan shunday tizim yaratilgan. Ularda 14 mingdan ortiq kommuna, ya'ni bizning mahallalarimiz shaklidagi o'zini o'zi boshqarish idoralari tashkil etilgan va har bir kommuna ikki xil soliqni o'zida olib qoladi va shu hududning rivoji, aholi ehtiyoji uchun sarflaydi.

Bizda ham mahalla budjeti tizimini joriy etish orqali mahallaning moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish rejalashtirilgan, - deydi Urgut tumani davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi Obid Suvonov. - Bu orqali mahallabay ishlashni rivojlantirish, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlarini yig'ish ko'rsatkichlarini oshirish va yangi ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda qo'shimcha mablag' jalb qilishga e'tibor qaratilgan. Mahallalar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari aholining to'lash savodxonligini oshirish orqali undirishga ko'maklashish va har bir mahallada o'z muammosini hal etish uchun 2023-yil 1-yanvardan ushbu qaror doirasida mahalla budjet tizimi tajriba tariqasida tumanimizda o'tkazilmoqda.

Qarorda Davlat soliq qo'mitasiga mol-mulk va yer soliqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga real vaqt rejimida uzatadigan mobil ilova yaratish yuklatilgandi. Qo'mita tomonidan topshiriq asosida "Mening mahallam" mobil ilovasi yaratildi va tumanimizdagi 120 ta mahalla fuqarolar yig'ini raislarining mobil telefon va planshet qurilmalari "soliq uz" ilovasidagi "Mening mahallam" ilovasiga ulandi. Endilikda mahalla raislari o'z hududidagi fuqaroning mol-mulk va yer solig'idan qancha qarzdorligi borligi, hisoblangan soliq va to'langan summa to'g'risida onlayn ma'lumot olishi mumkin.

Bu tajribada faqat jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari nazarda tutilgan. Noturarjoylar bo'yicha undirilgan mol-mulk va yer solig'idan tushgan mablag'lar mahal-



YANGI TAJRIBA: SO LIQ MAHALLANING O'ZIDA QOLADI

larga qaytarilmaydi. Ya'ni, jismoniy shaxslarning faqat mol-mulk va yer solig'i bo'yicha tushgan tushumlarning 10 foizi hisobot oyidan keyingi o'yingin 10 sanasidan boshlab tuman budjeti orqali tegishli jamg'armalarga yo'naltiriladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yili mol-mulk va yer solig'idan tushgan mablag'lar tuman budjetining o'zida qoldirilgan. Yangi tizim targ'iboti va samarasida ko'rsatkichlar o'tgan yil bilan solishtirganda 314 foizga oshgan. Shunday bo'lsa-da, hozir ko'pchilikni soliq tushumining ixtiyorida qolsa, fuqarolarni qiynayotgan masalalar bo'yicha tashabbusli budjet (open budget) loyihasida ishtirok etish xavotir uyg'otmoqda.

Open budjetda qatnashish mahallalarning ixtiyorida qolayotgan pul mablag'lariga ta'sir o'tkazmaydi, - so'zida davom etadi O.Suvonov. - Open budjetga mahalla raisi, hokim yordamchisi yoki mahalla faollari o'zlari

uchun dolzarb, deb hisoblangan masala loyihasini kiritishi va shu bo'yicha ovoz yig'ib loyihani yutib, olishi mumkin. Mahalla budjeti tizimida har bir mahallaning o'zi uchun alohida hisob raqami ochiladi va undirilgan soliq miqdorining 10 foizi ushbu hisob raqamga o'tkazib beriladi. Tizim asosida shakllantirilgan mablag'lar fuqarolar yig'ini kengashi tomonidan boshqariladi. Demak, mablag' mahalla ixtiyorida qoladi, faqat mahalla raislari shakllantirilgan mablag'larni tuman hokimligi, tuman moliya va iqtisodiyot bo'limi bilan kelishgan holda sarflaydi.

Hozirda Bunyodkor, Mirzaqishloq, Algar, Jartepa, Kamangaron, Quyitegana, Mergancha, Yuqori Beshkapa mahallalari soliq tushumlarida faol bo'lmoqda. Boshqa mahallalarda ham targ'ibot tadbirlari o'tkazilib, yangi tajribaning samaradorligi tushuntirilmoqda.

Misol uchun, Bunyodkor mahallasida 2023-yil uchun 1 milliard 200

million so'm soliq hisoblangan va yilning o'tgan uch oyida 200 million so'm mol-mulk va yer solig'i undirildi. Shu mablag' hisobidan 20 million so'm ularning hisob raqamiga o'tkaziladi va mahalla faollari o'zlarini qiynayotgan masala yechimiga mablag'ni yo'naltirishi mumkin. Ushbu tizimning yana bir ahamiyatli tomoni - bunda soliq inspektori avvalgiday xonadonlarga bormaydi. Har bir mahalla fuqarolar yig'ini raisi soliq yig'ishning aqlli tizimi o'rnatilgan elektron qurilmalar bilan jihatlanadi. Bu uskunada mahalladagi fuqarolarning mol-mulk va yer solig'idan qarzdorligi bor yoki yo'qligini ko'rish mumkin. Naqd pulda ham, plastik karta orqali ham soliqlarni to'lash imkoniyati yaratilgan. Oddiy qilib aytganda, soliq inspektorining o'rniga mahalla raisi ham fuqarolar bilan uchrashadi, ham soliqni undiradi. Tuman miqyosida o'tgan yilning uch oyida 2 milliard 600 million so'm soliq tushumlari undirilgan bo'lsa, joriy yilning mos davrida soliq tushumlari 5 milliard 600 million so'mga ortib, 8 milliard 200 million so'mni tashkil etmoqda. Ya'ni undirish uch barobarga ortdi.

Tumanning Navbog' mahallasida bo'lib, holatni kuzatdik. 125 gektar maydonni egallagan mahalladagi 900 xonadon (16 ta ko'p qavatli uy)da 5,1 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. 2022-yilning 1-choragida mahalladagi 120 nafar fuqaro 66 million 150 ming so'm soliq to'lagan. Joriy yilning shu davrida esa 282 nafar fuqaro tomonidan 160 million 546 ming so'm soliq tushumlari qayd etilgan. Ushbu mablag'ning 10 foizi mahalla ixtiyorida qolishini inobatga oladigan bo'lsak, hudud aholisini qiynayotgan masalalar qisqa muddatda yechim topishiga umid qilsa bo'ladi. Ammo mavridi kelganda shuni ham aytish kerakki, bir nechta mahallada bo'lganidek ularning deyarli barchasida bir xil muammo borligini ko'rdik. Ya'ni soliq to'lovini qabul qilishga mo'ljallangan uskuna barcha turdagi plastik kartalarni qabul qilmaydi. Umid qilamizki, bu muammo ham tez orada bartaraf etiladi.

O'ktam XUDODIYEV.



VILOYATDA QANCHA MAKTAB QURILADI?

2023-yil viloyatda respublika budjet mablag'lari hisobidan Samarqand shahar Qorasuv massivida 1680 o'rinni, Urgut tumanidagi Mergancha mahallasida 990 o'rinni yangi maktab binolari quriladi.

Shuningdek, 32 ta ta'lim muassasasi - Samarqand shahridagi 19-maktab, Kattaqo'rg'on shahridagi 20-, 12-, Bulung'ur tumanidagi 15-, 66-, Jomboy tumanidagi 14-, Ishtixon tumanidagi 53-, 91-, Kattaqo'rg'on tumanidagi 104-, 61-, Qo'shrabot tumanidagi 46-, 64-, 71-, Narpat tumanidagi 18-, 54-, 13-, Nurobod tumanidagi 28-, Oqdaryo tumanidagi 14-, Past Darg'om tumanidagi 115-, 44-, 75- umumta'lim maktablari, Payariqdagi 34-, 12-maktab filiali, Paxtachi tumanidagi 6-, Samarqand tumanidagi 9-, 10-, Toyloq tumanidagi 21-, Urgut tumanidagi 83-, 85-, 127-, 99-, 33-maktab binolari rekonstruksiya qilinib, qo'shimcha binolar qurilishi rejalashtirilgan.

Joriy yilda viloyat bo'yicha foydalanishga topshiriladigan inshootlar quvvati 10200 o'ringa ega.

Baxtigul QARSHIYeva,
viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining matbuot kotibi.

Munosabat Y OSHLAR UCHUN ANGI IMKONIYATLAR

11-aprel kuni Prezidentimiz raisligida yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'ttdi. Yig'ilishda yoshlarga sifatli ta'lim berish, kasb-hunarga o'qitish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish va bandidligini ta'minlash masalalari atroflicha muhokama qilindi.



Jumladan, talaba-yoshlarni ishga qabul qilish bo'yicha joriy yilning 1-iyunidan boshlab "Yoshlar daftari"ga kirgan talabalar uchun davlat tashkilotlarida ish haqi to'lanadigan stajirovka tizimini joriy qilish aytiladi. Bu hozirda viloyatimizdagi oliy o'quv yurtlarida o'qiyotgan 2710 nafar "Yoshlar daftari"ga kiritilgan talabalarning ishga joylashishi uchun imkoniyat yaratadi. Yig'ilishda Yurtboshimiz tomonidan viloyatlarda yil yakunigacha IT, reklama, kino, arxitektura, dizayn, marketing, hunarmandchilik, rassomlik kabi yo'nalishlarni o'zida jamlagan "Kreativ park" tashkil etish taklifi ham ilgari surildi.

Ayniqsa, bu maqsadlar uchun "Yangi O'zbekiston yoshlari tashabbuslari" jamg'armasi va elektron platformasi tashkil qilinishi va jamg'armaga 100 million dollar yo'naltirishi aytiladi. Bu mablag'lar iqtidorli yoshlarning eng yaxshi g'oya, startap va loyihalari qay va yengil shartlarda, zarur bo'lsa, foizsiz va garovsiz ajratilishi yoshlarning IT yo'nalishidagi savodxonligining oshishiga, tabdirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yib va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishiga xizmat qiladi.

O'tgan yil viloyatimiz yoshlari "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari

orqali "Yoshlar daftari"da ko'rsatilgan 25 ta yordamning 5 tasidan foydalangan. Jumladan, o'tkazilgan xatlov va o'rganishlar natijasida 45 ming 496 nafar yosh daftarga kiritilib, kasb-hunar o'rgatish, imtiyozli kreditlar, yer maydoni va subsidiyalarni ajratish hamda ijtimoiy-moddiy tomondan qo'llab-quvvatlangan bo'lsa, yig'ilishda endi bu imkoniyatlarning barchasidan unumli foydalanish choralarini ko'rilishi ta'kidlandi. Xususan, endi yoshlarga kasb o'qish, mehnat quroli, urug', ko'chat sotib olish uchun subsidiya kabi turdosh xizmatlardan bir vaqtning o'zida foydalanish imkoniyati yaratiladi. 2,5 million so'm o'sha hududidagi urug'-ko'chat yo'jaliklaridan sotib olish uchun to'g'ridan-to'g'ri beriladi. Yoshlarni animatsiya, dizayn, logistika operatori, gid kabi kasblarga o'qitishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu tizim bilan maktablarning 10-11-sinf o'quvchilari qamrab olinadi. Bundan buyon jamg'arma mablag'ining kamida 40 foizi aynan kasb-hunar-ga o'qitishga yo'naltiriladi. Joriy yilda zamonaviy kasblarga o'qitish uchun 100 milliard so'm ajratiladi va kamida 25 ming nafar yoshlar o'qitiladi.

Husan TO'XTAYEV,
Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i.

Konstitutsiyaviy islohot inson qadri uchun

Samarqand shahridagi do'stlik uyida nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari ishtirokida mamlakatimizdagi muhim siyosiy jarayon - Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha referendumga bag'ishlangan "Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish - davlatning konstitutsiyaviy burchi" mavzusida davra suhbatini bo'lib o'ttdi.



Uchrashuv inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti, Barqaror rivojlanish markazi, O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi hamkorligida tashkil etildi.

Uchrashuvda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilishi ko'zda tutilayotgan normalar, o'zgartirishlar haqida batafsil ma'lumot berildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda shu paytgacha mavhum bo'lib kelgan sohalarda ham e'tirof etilib, barcha o'zgarishlarda xalqimiz manfaatini, inson qadr-qimmatini ulug'lashga katta e'tibor qaratilmoqda, - dedi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti direktori, yuridik fanlari doktori, katta ilmiy xodim Murodjon Turg'unov. - Jumladan, Konstitutsiyaviy qonun loyihasining 148-moddasida «Fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining

shakllantirish hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Fuqarolarning hamda fuqarolik jamiyati institutlarining budjet jarayonida ishtirok etishi tartibi va shakllari qonun bilan belgilanadi», deya qayd etilmoqda. Bu amaldagi demokratik islohotlarning uzviyligini anglatadi. Umuman olganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalq faronligini yanada oshirish, davlat va fuqarolik jamiyatining jadal rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratadi.

Targ'ibot tadbirida Konstitutsiyaviy qonun loyihasidagi o'zgartirish va qo'shimchalar haqida atroflicha so'z yuritildi. Ishtirokchilar o'zlarini qiziqitirgan savollarga batafsil javob olishdi. Tadbirda viloyat ko'zi o'zlarini qiziqitirgan savollarga batafsil javob olishdi. Tadbirda viloyat ko'zi o'zlarini qiziqitirgan savollarga batafsil javob olishdi. Tadbirda viloyat ko'zi o'zlarini qiziqitirgan savollarga batafsil javob olishdi.

F.RO'ZIBOYEV.

ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARI HIMOYADA

Uy-joy kommunal, transport va qurilish sohasida 2022-yil viloyatdagi iste'molchilardan 915 ta murojaat kelib tushgan. Murojaatlarning 812 tasi kommunal xizmat ko'rsatish sohasidagi muammolar bo'yicha, 32 tasi uy-joylarni o'z muddatlarida foydalanishga topshirishda shartnoma shartlariga amal qilmaslik, mavjud kommunikatsiya tarmoqlarini ta'mirlashdagi muammolar, 38 tasi transport xizmati ko'rsatishdagi muammolar, 33 tasi iste'molchilar huquqlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa masalalarni tashkil etadi.

Ulardan 665 tasi qanoatlantirildi, 46 ta murojaat bo'yicha huquqiy, 183 tasi bo'yicha boshqa tegishli tushuntirishlar berildi, 21 ta murojaatdagi masala vakolatli organlarga yuborildi.



XIZMAT KO'RSATUVCHI QARZDOR EKAN ...

Murojaatlarning 375 tasi (41 foizi) tabiiy gaz ta'minotidagi muammolar bo'yicha kelib tushgan. Shundan 123 tasi tabiiy gaz ta'minotidagi uzilishlar, gaz bosimining pastligi, 119 tasi tabiiy gaz iste'molidan asossiz qarzdorlik paydo bo'layotganligi, 133 tasi suyuqlirilgan gaz ballonlarini yetkazib berishda tasdiqlangan jadvalga amal qilmasdan belgilangan muddatlardan kechiktirilayotganligi keltirilgan.

Murojaatlarni o'rganish natijalariga ko'ra, 181 million 299 ming so'm mablag' iste'molchilar foydasiga qayta hisob-kitob qilindi.

Shuningdek, 347 ta elektr energiyasini yetkazib berishdagi uzilishlar, 55 ta elektr ta'minoti korxonasi bilan hisob-kitob masalasidagi murojaat asosida 6 million 791 ming so'm mablag' iste'molchilar foydasiga qayta hisoblangan.

Bunday holatni ichimlik suvi va oqo-

va suv ta'minoti bo'yicha ham kuzatish mumkin. Aslida 38 ta ichimlik suvini yetkazib berishdagi uzilishlar va suv sifatining talab darajasida emasligi, 21 ta iste'mol uchun asossiz qarzdorlik masalasida murojaatlar bo'lgan. Ularni o'rganish natijasida 9 ta holatda 4 million 961 ming so'm mablag' iste'molchilar foydasiga qayta hisob-kitob qilindi.

O'tgan yili transport xizmati ko'rsatish sohasi bo'yicha 38 ta murojaat ro'yxatga olingan. Murojaatlarning 31 tasi aviachipta va temir yo'l chiptalari pulini qaytarib olishda amaliy yordam so'rab, 7 tasi Samarqand shahri va Kattaqo'rg'on tumanida yo'lovchi tashish faoliyati bilan shug'ullanayotgan tashkilotlar faoliyatidan norozi bo'lib yo'llangan.

Ularni o'rganish davomida 37 million 402 ming so'm avia va temir yo'l chipta pullari iste'molchilarga qaytarib olib berilgan.

UY-JOY QURILISHIDA MUAMMO YO'QMI?

2022-yilda sohaga oid jami 32 ta murojaat kelib tushgan. Ulardan 3 ta holatda qurilish korxonalariga to'langan pul mablag'larini qaytarib olishda amaliy yordam so'ralgan. 29 tasi qurilish korxonasi faoliyati bilan shug'ullanayotgan tashkilotlar faoliyatidan norozilik edi.

Barcha holatlarda murojaatlar ijobiy hal etilgan. Jumladan, Navoiy viloyati Xatirchi tumanida yashovchi fuqaro S.To'ratoshevning Samarqand shahrida faoliyat ko'rsatayotgan "F.S" MChJ tomonidan turarjoy uchun to'langan 48 million 900 ming so'm pul mablag'ini qaytarib olishga doir murojaati qanoatlantirildi.

A.YOQUBOV,

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi viloyat hududiy boshqarmasi bo'lim boshlig'i.



Samarqandlik 17 nafar sportchi jahon chempionati va kubogi sovrindori

Rossiyaning Moskva shahrida qo'l jangi bo'yicha 20 dan ortiq davlatning o'smir sportchilari o'rtasida jahon chempionati va kattalar o'rtasida jahon kubogi musobaqalari bo'lib o'tdi.

Musobaqada yurtimiz sharafini himoya qilgan 17 nafar samarqandlik sportchi 8 ta oltin, 6 ta kumush va 3 ta bronza medalni qo'lga kiritdi.

Turnir yakunida o'zbekistonlik sportchilar umumjamoa hisobida jahon chempionatida birinchi va kubok bahslarida ikkinchi o'rinni egalladi.

"YOSH GVARDIYACHI" HARBIY-SPORT MUSOBAQASINING VILOYAT BOSQICHI G'OLIBLARI ANIQLANDI

Samarqand shahridagi "Dinamo" o'yingohida "Besh muhim tashabbus" doirasida o'quvchi-yoshlar o'rtasida "Yosh gvardiyachi" harbiy-sport musobaqasining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Unda shahar va tumanlarda g'olib bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-11-sinf o'quvchilaridan iborat 16 ta jamoa to'qqiz shart bo'yicha bellashdi.

Bahslar yakuniga ko'ra, Samarqand shahridagi 43-umumiy o'rta ta'lim maktabining "Yosh gvardiyachilar" jamoasi respublika yo'llanmasini qo'lga kiritgan bo'lsa, keyingi o'rinlar Kattaqo'rg'on shahridagi 11-umumiy o'rta ta'lim maktabining "Bars" hamda Narpay tumanidagi 66-umumiy o'rta ta'lim maktabining "Lochinlar" jamoalariga nasib etdi.

Bugun respublikamizning ko'plab hududlarida xonadonlar, klasterlar, fermer xo'jaliklarida suv chiqarish maqsadida (artezian) quduqlar qazilgan. Artezian quduqlarining ko'payishi va undan samarasiz foydalanish oqibatida yer osti daryolarining zaxirasi kamayishi va o'zani o'zgarishi kuzatilmoqda.

Yer osti suv sathining tushib ketishiga sabab nima?

Masalan, Zarafshon daryosi yaqinida joylashgan mahalla va qishloqlarda yashovchi aholi tomonidan o'z xonadonlarida o'rnatilgan quduqlarning soni keyingi yillarda ortgan. Natijada daryoning yer osti o'zanida o'zgarish sodir bo'lib, daryo qirg'og'idagi Zarafshon milliy tabiat bog'ining 100-150 metr ichkarisiga qadar noyob turdagi o'simlik dunyosi va daraxtlarning qurishi kuzatildi.

Zarafshon daryosidan katta miqdorda qum-shag'al aralashmasi kovlab olinishi ham suv sathining tushishiga sabab bo'ladi. Daryoga suv kelib tursa, suv

sathi tushib ketmas, biroq yer osti daryolarining o'zani o'zgarsa, uni qaytarib bo'lmaydi.

Bu yil qish faslida yog'ingarchilik yaxshi bo'ldi. Ammo yozning boshqa yillarga nisbatan issiq kelishi bashorat qilinmoqda. Bunday vaziyatda daryodagi va yerosti suvlaridan ham oqilona foydalanish talab etiladi. Suv faqat bugun uchun emas, kelajak uchun ham kerakligini unutmaylik.

Sherali ISKANDAROV,
Tabiat resurslari vazirligi viloyat hududiy boshqarmasi axborot xizmati rahbari.

MOLIYAVIY IJARA VA LIZING NIMA?

Soliq kodeksiga asosan shartnoma bo'yicha mol-mulkni, ya'ni moliyaviy ijara obyektini o'n ikki oydan ko'p muddatga egalik qilish va foydalanishga berish chog'ida yuzaga keladigan ijara munosabatlari moliyaviy ijara deyiladi.

Moliyaviy ijara shartnomasida quyidagi talablardan hech bo'lmaganda bittasiga javob berishi kerak. Ya'ni moliyaviy ijara shartnomasining muddati tugagach, ushbu obyekt ijara rahbarining mulkiga o'tkazilsa, moliyaviy ijara shartnomasining muddati moliyaviy ijara obyektini moliyaviy ijara shartnomasida belgilanadigan qat'iy narx bo'yicha haqini to'lab olish huquqiga ega bo'lsa;

- moliyaviy ijara shartnomasining muddati tugagach, ijarachi moliyaviy ijara obyektini moliyaviy ijara shartnomasida belgilanadigan qat'iy narx bo'yicha haqini to'lab olish huquqiga ega bo'lsa;

- moliyaviy ijara shartnomasining amal qilish davrida ijara to'lovlarining joriy diskontlangan qiymati obyektning moliyaviy ijara topshirish paytidagi joriy qiymatining 90 foizidan oshsa. Joriy diskontlangan qiymat buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq aniqlanadi.

Moliyaviy ijara shartnomasining muddati tugagach, Bunda bir taraf (lizing beruvchi) boshqa tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga ko'ra uchinchi tartfdan (sotuvchidan) lizing shartnomasi bo'yicha shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) oladi. So'ngra uni Soliq kodeksida belgilangan talablarga muvofiq bo'lgan shartnoma bo'yicha egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga haq evaziga beradi.

Moliyaviy ijara (lizing) shartnomasining tarafi bo'lgan ijara (lizing oluvchiga) moliyaviy ijara (lizing) predmetining xaridori sifatida qaraladi.

Davron RAVSHANOV,
axborot xizmati rahbari.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

"URGUT SAVDO KOMPLEKSI" MCHJ TA'SISCHILARI DIQQATIGA!

Urgut tumanidagi "Urgut Savdo Kompleksi" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sisichilarining 2022-yil yakunlari bo'yicha umumiy hisobot yig'ilishi 2023-yil 18-may kuni soat 10:00 da jamiyat ma'muriy binosida o'tkaziladi.

USHBU HISOBOT YIG'ILISHIGA BARCHA TA'SISCHILAR VA QIZIQUVCHI TASHKILOTLAR RAHBARLARI TAKLIF ETILADI.

Hisobot yig'ilishida quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

1. 2022-yil yakunlari bo'yicha jamiyat boshqaruvi raisining hisoboti;
2. Jamiyatning 2022-yilgi iqtisodiy-moliyaviy holati bo'yicha jamiyat bosh hisobchisining hisoboti;
3. Taftish komissiyasi raisining hisoboti;
4. 2022-yillik buxgalteriya balansini tasdiqlash;
5. 2022-yil bo'yicha o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi xulosasini tasdiqlash;
6. Jamiyatning 2023-yil uchun tuzilgan biznes-rejasini tasdiqlash;
7. Jamiyatning 2023-yil uchun shtatlar birligi jadvalini tasdiqlash;
8. Jamiyatning 2022-yil yakuni bo'yicha ta'sisichilarga tasdiqlanadigan dividend taqsimoti va uning to'lovini ko'rib chiqish va tasdiqlash;
9. Jamiyat kuzatuv kengashining yangi a'zolarini saylash;
10. Jamiyat boshqaruvi a'zolarini saylash;
11. Taftish komissiyasi a'zolarini saylash;
12. Boshqa masalalar.

Manzil: Urgut tumani Mergancha qishlog'i.
"Urgut Savdo Kompleksi" MCHJ kuzatuv kengashi.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahridagi "AL SHART" xususiy korxonasi (STIR: 305685609) ta'sisichisining 2023-yil 10-apreldagi qaroriga asosan o'z tashkiliy-huquqiy shaklini "AL SHART" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga o'zgartiradi. "AL SHART" mas'uliyati cheklangan jamiyati "AL SHART" xususiy korxonasi bilan barcha huquq va majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri Sartepa maskani, 149-"V" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Sultonova Xosiyatga (2012-yil 27-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Ruziyev Zoxir Bozorovichga (2022-yil 6-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasida marhum Djumayeva Maxsudaga (2013-yil 6-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahatov O'Imas To'rayevich notarial idorasida marhum Karimov Ravon Ochilovichga (2022-yil 28-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahatov O'Imas To'rayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi, 26-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Muxtarovichga (2022-yil 15-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Pardayev Yadgar (2016-yil 3-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Xurramov Nor-kulga (2020-yil 17-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Xurazova Lola Tilavovnaga (2022-yil 19-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov

Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Suyarova Lola Gulmurodovnaga (2022-yil 8-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.

Urgut tumanidagi "BOBURJON OBOD QURUVCHI" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 304824885) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand tumanidagi "DIMISHQIBOLA AGRO TOMORQA" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 303212414) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Fuqaro Baxronov Muxammadjon Olim o'g'liga qarashli Samarqand tumani Nayman mahallasida joylashgan uy-joyning kadastr hujjatlari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Fuqaro Baxronov Muxammadjon Olim o'g'liga qarashli Samarqand shahri Spitmen shoh ko'chasida joylashgan savdo do'konining kadastr hujjatlari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!
Fuqaro Namaev Norboy Sindarovichga qarashli davlat raqami 30 D 321 XA bo'lgan "COBALT" avtomashinasining texnik pasport va Sindorov Abdavali Norboy o'g'lining haydovchilik guvohnomasi (AF 1872888, 18.09.2020-yilda berilgan) Samarqand shahri hududida yo'qolgan. Ushbu hujjatlarni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.
Telefon: +99897-911-23-51, +99899-961-23-51.

YANGILANISHLAR SOLNOMASI

Taniqli shoir va jurnalist O'tkir Rahmatning "Ezgu yangilanishlar mamlakati" kitobi ana shunday kuzatuvlar mahsuli sifatida dunyoga kelgan.

Kitobdagi tahliliy, aniq dalillarga asoslangan publitsistik maqolalar mamlakatimizda keyingi yillarda yuz berayotgan hayotbaxsh o'zgarishlarni yaxlit tasma kabi o'quvchi ko'z o'ngida namoyon qiladi.

Bugun dunyoda tinchlik, hamjihatlik va barqarorlikka qarshi turli tahdidlar tobora kuchayib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi turli yolg'on, uydirma va soxta tahlillar insonlar ongu tafakkurini manipulyatsiya qilish, ertangi kunga bo'lgan ishonchini paymol etish, vayronkor g'oyalari bilan zaharlashga urinyapti. Qo'limizdagi kitob ana shunday tahlil, murakkab zamonda xalqimiz hayotida burilish yasayotgan islohotlar, ularning mazmun-mohiyati, xalqimiz o'zi

belgilab olgan yorug' yo'lining tadjiriy jarayonlarga doir umumiy qonuniyatlarni sodda tilda, ravon uslubda bayon qilgani bilan ahamiyatli.

Muallif kitobdan o'rin olgan "Ezgu yangilanishlar mamlakati. O'zbekistondagi amaliy va jadal islohotlar dunyo hamjamiyatining e'tirofiga sazovor bo'lmoqda" sarlavhali maqolasida ta'kidlaganidek, kundalik turmushdagi ijobiy o'zgarishlarning hisobini olish qiyin. Xususan, qisqa vaqtda amaldorlarning joylarda fuqarolar bilan gaplashish ohangi o'zgardi, ta'limni tubdan isloh qilishga, o'qituvchilarning mehnatini munosib qadrlash uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch hamda imkoniyatlarini safarbar etishga kirishildi. Pirovardida, ular majburiy mehnatdan, ortiqcha qog'ozbozlikdan, yoshlarga bilim berishga xalal beradigan har qanday yumushdan

xolos etildi. Maqolada keyingi yillarda o'qituvchi yoki shifokor hayotida yuz bergan ijobiy o'zgarishlar haqida jonli misollar keltirilgan.


Darhaqiqat, O'zbekistondagi amaliy va jadal islohotlar dunyo hamjamiyatining e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan olib borilayotgan va ahamiyatiga ko'ra tarixiy, deb atalgan islohotlar, harakatlar strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni bugun jahonning taniqli olimlari tan oldi, shubhaga to'la qarashlari bilan ajralib turuvchi ekspertlar ham ularni istiqbolli, deya baholayapti. Xususan, mintaqamizda keskin sog'lomlashtirish jarayoni boshlandi. Zero, ko'p asrlar davomida qadimiy tamaddun beshigi sifatida o'z o'rniga ega Markaziy Osiyo nafaqat jug'rofiy va geosiyosiy, madaniy va ma'naviy jihatdan yagona sanalgan makonda bugun

Yangi kitob

yuz milliondan ziyod aholi yashaydi, ularni umumiy tarix, din, madaniyat, o'zaro bog'liq kommunikatsiyalar tizimi, shuningdek, umumiy kelajak uchun mas'uliyat birlashtirib turadi. Ana shu jihatlar e'tiborga olingan holda bir-biri bilan ancha uzilib qolgan yaqin qo'shni mamlakatlar bugun barcha jabhalarda hamkorlikni mustahkamlash yo'lidan boryapti.

Mazkur kitobda muallifning keyingi yillarda Yangi O'zbekistonda yuz bergan tarixiy o'zgarishlar, xalqchil islohotlarning samarasini o'zida aks ettirgan tahliliy maqolalari jamlangan. Poytaxtimizdagi G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etilgan to'plamda maqolalar voqea-hodisalarning ketma-ketligi inobatga olingan holda xronologik tarzda joylashtirilgan. Shu sababdan kitobni yaxlit bir asar – yangilanishlar solnomasi, deysiz mumkin.

S.ASOMIDDINOV.



Hofiz Bahodir tanburni bugun nafaqat viloyatimiz, balki respublikamizdagi san'at ixlosmandlari yaxshi bilishadi.

Bahodir Sirojiddinov Toyloq tumanida adabiyotga, san'atga daxillar, ziyoli o'ldi tug'ilib, voyaga yetdi.

U 1980-yillar boshida Samarqand davlat filarmoniyasida yakkaxon xonanda sifatida ilk ijodiy faoliyatini boshladi. 1990-1995 yillar Toshkent davlat madaniyat institutida tahsil oldi.

Bahodir Sirojiddinovning repertuari mazmunan boy va rangbarang. Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Fuzuliy, Hofiz, Sa'diy, Furqat singari mumtoz adabiyotimiz vakillarining g'azallariga, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi o'nlab shoirlar she'rlariga kuy bastalab, ashulalar yaratdi.

2011-yilda hofizning oilaviy ansambliga "Xalq havaskorlik jamoasi" unvoni berildi. Elimiz e'zozidagi hofiz Bahodir Sirojiddinovni 60-bahori bilan qutlaymiz!

Mamlakatimizda barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarni to'la tasavvur qilish, bir qarashda uning shiddatini ko'z bilan ilg'ash mushkul. Buni chuqur tahlil va tadqiq qilgan, teran siyosiy nigoh bilan kuzatgan kishigina idrok eta oladi.

Jomliklar nim sipoyi, nim sahroyi, chapani, yalangto'sh (ko'krakdor) va jo'mard mar-dum. Soddaligi ham bor, ammo anoyi emas. Ochiqko'ngil, mug'ombirliklari jo'nroq bo'lsa-da, o'ziga xos. Bo'lar-bo'lmasga hovliqib, bori-yo'g'ini to'kib tashlamaydi. Gap bilgich so'z-mollari ham ko'p. Shulardan biri Nurim bobo edi. Bu odamdan latifanamo gaplar, hikoyalari qol-ganki, hanuz odamlar og'zidan tushmaydi.

Oy bilan oftobning ko'zi o'ng bo'lsa...

Yoxud asar obrazlarining hayotdan olinishiga misol

Aytishlaricha, Nurim bobo viloyat miqyosidagi amaldorlardan biri bilan yaqin oshnashgan, tez-tez uning suhbatida bo'lgan. Odamlar anoyi emas, kimga qanday muomala qilishni yaxshi bilishadi. Nurim boboning "tepada odami" borligini bilgach, unga salom-alikni shunga muvofiq qilishgan. Albatta, bobo bu imkoniyatdan yaxshi foydalangan - gapi "kattalashgan". Kichikroq amaldorlarni nazar-pisand qilmagan va o'zicha ushbu iborani to'qigan: "Oy bilan oftobning ko'zi o'ng bo'lsa, yulduz pishirib yermidi?". Bu ibora quloqdan-quloqqa o'tib, elga ovoza bo'lgan. Ammo uning mazmuni bugun ham eskirmagan.

Nurim boboning men tengi Berdiyori ismli nevarasi bor - o'qituvchi. Shu jo'ramiz o'tgan asrning 70-yillari oxirida ko'pkarili, kurashli katta to'y qildi. Uzoq-yaqin qishloqlardan bir kun oldin polvonlar, otlar bilan kelgan mehmonlarga qo'noq berildi.

Murod Toshkentda edi. Yozuvchi sifatida endigina tanilib kel-yotuvdi. U ham to'yga aytilgan. Mening uyimga qo'noq joy belgilangan. Ammo u kelmayapti. Soat kechki o'n ikkilargacha kutdik, kelmadi. Mehmonga atalgan shishalar tik qoldi.

U ertasiga keldi. Salom-alikdan so'ng so'radim:
- Jo'ra, kecha kelmadingiz? Siz bizni ko'p kutdik.
- Ey, Qayum oshna, men bugun ham to'y uchun kelmadim. Rostini aytсам, o'g'irlikka keldim.
- O'g'irlikka! Qanaqa o'g'irlik, nima o'g'irlaysiz?
- UZR, men gap o'g'irlagan keldim. Nurim boboning gaplarini o'g'irlagan.

Xullas, gap-gap bilan bo'lib davra qizidi. Kechagi tik qolgan shishalar yonboshladi. Davradagilarning har biri Nurim bobo haqida bilganlarini gapirib berdi. Murod gapga to'lib-toshib qaytdi. "Oy bilan oftobning ko'zi o'ng bo'lsa..."ni bilib ketdi.

Keyin Murod "Lolazor"da Nurim boboning yuqoridagi iborasini Jonuzoq arabning tilidan beribdi.

Xo'sh, Jonuzoq arab kim? Kosonlik bu odam Jom kolxozining, jumladan, Murodning otasi Xolbozorov raisning g'allasini tuyalari bilan Kattaqo'rg'on omborlariga tashigan tuyakash. Shuning uchun o'z vaqtida rais bilan yaqin bo'lgan. Hatto tuyada Samarqandga odam olib bergan. Keyinchalik Kosonga ko'chib ketgan.

Jonuzoq arab 1965-yillari eski qadrdonlarini ko'rgan Jomga keladi. Bu vaqtda rais Xolbozorov olamdan o'tgan. Tuyakash Safar bobonikida mehmon bo'lgan. Yillar o'tib, Safar boboning o'g'li Xonnazar Kosonga bergan. Oshnashlik hurmati Jonuzoq bobo Xonnazarga telpak tiktirib olishi uchun sherg'oz qorako'li teri bergan.

Bu gaplardan Murod bexabar. Bir gal buni aytganimda hayron bo'luvdi.

Shu tariqa bulduruqlik Oshno va Yaxshiboyev haqidagi "qis-sa"ga yoki "hikoya"ga kosonlik Jonuzoq arab obrazi kirib qolgan.

Qayum TURG'ON.

TEATR

zamonaviy dunyoda yagona jonli san'at turi bo'lib qoldi

Muvaffaqiyatli sahna asarini yaratishda ijodiy jamoaning mahorati katta rol o'ynaydi. Ammo ko'pchilik tomoshabin bunda dramaturg, rejissyor va aktyorlar ijrosi muhim deb biladi. Aslida rejissyor ishi, aktyorlar ijrosi spektaklning suyagini tashkil etsa, sahna rassomining chizgisi, davr muhitini yaratishdagi iste'dodi spektaklning "lahm"i hisoblanadi. Viloyat musiqali drama teatrida sahna yuzini ko'rayotgan spektakllarning muvaffaqiyatida sohada o'z dastxatiga ega, faoliyati davomida yetmishdan ortiq spektaklni sahnalashtirgan iste'dodli rassom Bahrom Safoyevning alohida o'rni bor. Ijodkor bilan bugungi kun teatri, unda rassomning o'rni va ijodiy faoliyati haqida suhbatlashdik.

- Bahrom aka, ko'p yillik faoliyat-ingizdan aytib-chi, teatr hayotimiz-da qanday o'rninga ega?

- Teatr, umuman, har qanday san'at asari, agar u yetuklikka da'vogar bo'lsa, inson tafakkurini charxlaydi. Teatr so'zi zamirida ham faqatgina estetik zavqlanish - tomosha emas, balki spektakllar orqali tomoshabinni ma'naviy tarbiyalash yuki mujassam.

Dadam O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Davron Safoyev bir umr shu teatrdan faoliyat yuritdi. Ularga ergashib, bolaligim ham teatrdan o'tdi. Meni ham bu yerdagi ijodiy muhit tarbiyaladi, teatr san'atiga mehrim tushdi.

- Bundan chiqdi, sizda qaysi kasbni egallasam ekan, degan tanlov bo'lmagan.

- Dadam har doim tanlash imkoniyatini o'zimdagi qoldirdigan. Ammo ich-ichidan ota sifatida o'z kasbini egallashimni istadi. Maktabni tugatib, Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutida me'mor-dizayn yo'nalishi bo'yicha tahsil oldim. Ilk faoliyatimni teatrdan boshladim. Dadam bilan yigirma yil yonma-yon ijod qildim. Bu men uchun faxr, albatta. Qolaversa, o'z sohasining yetuk mutaxassisidan kasb sirlarini o'rganib, tajriba orttirdim. O'sha paytlardan badiiy bezash ishlarida qatnashdim. O'zim mustaqil kichik sahna asarlarida badiiy bezaklar yaratdim.

- Spektaklda dramaturg xulosasi, rejissyor yechimlarini aks ettirishda rassomning dastxatini qanday ifodalash mumkin?

- Teatr rassomi - sahnalashtiruvchi rassom. Spektakl yechimi, g'oyaviy-badiiy tavsifi, kerak bo'lsa, hal qiluvchi o'rninga chiqadi. Adabiy asar - dramaturgiyaning poydevori, spektakl ijodkorlarining barchasi uchun ijodiy izlanish zaminidir. Bu mezon rassomga ham taalluqli. Shu sababdan teatr rassomi faoliyatida ijodiy jarayon avvalo, pesani qunt bilan o'qishdan boshlanadi. Rassom birinchi galda pesa g'oyasini teran tushunib yetishi, unda qatnashadigan personajlarning faoliyati, xarakterlarini o'rganishi lozim. Asar

voqealari qaysi davrga mansub bo'lsa, undagi tarixiy tendensiyalarni anglab yetishi, spektaklni yaxlit tasavvur qilishi, uning badiiy yechimini topish zarur. Spektaklning e'lon muvaffaqiyatini rassomning iste'dodi hal qiladi, degan ibora bor. Bu biroq mubolag'ali bo'lsa-da, aytish mumkin, tomoshabinni spektaklga olib kirish, asar haqidagi ilk ijodiy yoki salbiy taassurot rassomning ishi qanchalik muvaffaqiyatli chiqishiga bog'liq.

- Sahna asarida turli makonlar, davrlar sahnalashtiriladi. Davr ruhini yaratish uchun teatr rassomi tarixni bilishi, umuman, barcha sohalaridan xabardor bo'lishini talab qiladi.

- Albatta, bu juda muhim. Shu sababdan faoliyatim davomida ham o'qishdan, izlanishdan to'xtamayman. Turli sohalar, yo'nalishlarda bilim orttirishga, yangiliklardan boxabar bo'lishga harakat qilaman. Teatrlar repertuarida turli davrlarga bag'ishlangan, turli mamlakatlar va xalqlar hayotiga oid asarlar sahnalashtiriladi. Shunday ekan, teatr rassomi umumiy tarixni, tasviriy va teatr dramaturgiyasi tarixini, etnografiya, ayniqsa, liboslar tarixini puxta bilishi kerak. Spektaklning badiiy bezalishi ijodiy va mahobatli, yengil yoki kush-chaqchaq ruhda bo'lishi mumkin. Bunda juda ko'p jihatlariga e'tibor qaratis kerak. Spektakl dekoratsiyasi undagi voqealar bo'lib o'tadigan makon, zamon va vaqtda hamohang, monand bo'lishi zarur. Rejissyor atrofida har bir sohaning yetuk mutaxassislari hamjihatlikda ish-lasa, shundagina sahna yuzini ko'rayotgan

asar tomoshabiniga manzur bo'ladi va ular ruhiyatiga kirib boradi. O'z ijodiy faoliyatimdan aytсам, ayniqsa, tarixiy asarlar bezagida qunt bilan ishlayman. O'sha davr ruhiyati, insonlar xarakterini ochib berishga harakat qilaman.

- Yosh teatr rassomlari, xususan, shogirdlaringiz haqida... Yosh rassomlar teatrin talayaptimi?

- Vaqt, umuman, har bir sohada tezkorlik oshib ketgandek. Yoshlar buni ko'proq o'zida his qilyapti, nazarimda. Teatr san'ati fidoyilikni talab qiladi. Faqat moddiy tomonini o'ylasa, bu yerda ishlash hammaga ham ma'qul kelavermaydi. Bir necha yillar biz teatrdan uzoqlashdik. Ammo keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan sohaga e'tibor oshdi. Bu o'z natijasini ko'rsatadi. Vaqti kelib, yoshlar yana sohada faoliyat boshlaydi, deb o'ylayman. Ho'zir ham iste'dodli yoshlar yetarli.

- Texnologiyalar rivojlangan bugungi kunda teatrga tomoshabinni olib kelish qiyin emasmi?

- Albatta, har bir sohaning, shu qatori biror bir san'at turining ham gullab-yashnagan davri bo'ladi. Bir paytlar teatr kishilar hayotining ajralmas qismi edi. Bugun tomoshabinni teatrga olib kelish uchun faqatgina spektaklni taqdim etish yetarli bo'lmaydi. Targ'ibot, tashviqot ishini ham samarali yo'lga qo'yish lozim. Yaxshi asar hamma vaqt ham o'z tomoshabinini topgan. Ko'pgina san'at turlariga kompyuter texnologiyalari kirib keldi. Zamonaviy dunyoda teatrga yagona jonli san'at turi bo'lib qoldi.

Sulaymon MARDIYEV suhbatlashdi.

Samarqand xalqaro texnologiya universitetida "O'rta asr Sharq olamining buyuk mutafakkir va allomalari" mavzusida portretlar vernisaj bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston Teatr arboblari uyushmasi va Badiiy akademiya-si a'zosi, mohir musavvir, teatr rassomi va dizayner Bahrom Safoyev chizgan buyuk mutafakkir va allomalimiz portretlari namoyish etildi. Taniqli rassomlar, tarixchilar, tasviriy san'at sohasi mutaxassislari B.Safoyev ijodi haqida so'z yuritdi.

Tadbir davomida O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi, universitet rektori, professor Yusuf Abdullaevga uyushma a'zozligining yangilan-gan guvohnomasi va ko'krak nishoni topshirildi.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

16-APREL

Mahkam OBLOQULOV - (1920-1992) Urgut shahrida tug'ilgan. Kulol. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

Vasiliy LARTSEV - (1925-1989) Oltoy o'lkasida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi.

Aziz YO'LDOSEV - (1952-2000) Past Darg'om tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Jurnalistlari uyushmasi a'zosi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

O'.XUDOYBERDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 604 nusxada chop etildi. Buyurilma . Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.